

OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Norboboyeva Nigina

Alisher Navoiy nomidagi

ToshDO 'TAU 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda ta'lif sohasida yangidan yangi o'zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, maktab o'quvchilarini har tomonlama kuchli salohiyatli qilish maqsadida ko'plab davlatlarning ushbu sohadagi metodlari olib kirilmoqda. Yaratilayotgan yangi darsliklar yosh avlodning to'rtta nutqiy ko'nikmalarini birdaniga oshirishga qaratilgan bo'lib, bu o'z navbatida o'z navbatida ijobiy natijalarga olib kelmoqda. Ushbu maqola maktab o'quvchilarining og'zaki nutq qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, o'zida bir necha masalalarni aks ettiradi.

Kalit so'zlar: Og'zaki nutq, bolalar psixologiyasi, mакtab, interaktiv o'yin.

Annotation: nowadays, there number of changes in education. In particular, the methods of many countries in this field are being imported in order to make schoolchildren more rounded in all aspects. The new books that are created help to increase the four abilities of the young generation at once, which in turn leads to positive results. The following article illustrates how to develop oral speech skills of schoolchildren and reflects several issues.

Key words: oral speech, child psychology, school, interactive game.

Kirish. Ma'lumki, nutqning ikki xil ko'rinishi mavjud bo'lib, bular og'zaki va yozma guruhlarga bo'linadi. Og'zaki nutq so'zlash-eshitishga qaratilgan bo'lsa, yozma nutq yozish-o'qishga qaratilgan bo'ladi. Yozma va og'zaki nutqning ko'rinishlariga to'xtaladigan bo'lsak, yozma nutq tilshunoslikda mavjud bo'lgan besh uslubda qo'llansa, og'zaki nutq turli sheva nutqlarida namoyon bo'ladi.

Darhaqiqat, yaqin besh-olti yil ichidagi o'qituvchilarga nazar tashlaydigan bo'lsak, ular oddiy pedagog emas, balki har tomonlama yetuk va har sohadan xabardor bo'lgan kadrlar bo'lib yetishmoqda. Ya'ni hozirgi o'qituvchilar tayyor ma'lumotni o'quvchiga

yetkazish bilan cheklanib qolmay, har yangi ma'lumotdan yangi metodlar yaratib, o'quvchilarni kreativ fikrlashga, darsni faqatgina yangi mavzuni o'rghanish bilan o'tkazibgina qolmay, turli o'yinlar bilan tajribalarini yana-da oshirishga harakat qilishmoqda. Ona tili ta'limining bosh maqsadi – og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, to'g'ri va ifodali fikrlash qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat. Ona tili darslarida o'quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda yozma usullarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va ifodalash alohida ahamiyat kasb etadi.¹ Har qanday dars bo'lishidan qat'iy nazar, bolalarning og'zaki nutqiga alohida e'tibor berish kerak. Sababi maktablar o'quvchi uchun eng muhim dargoh hisoblanib, bu yerni tark etgandan keyin har bir bola mustaqil shaxs sifatida shakllanishi kerak. Bunday qobiliyatlarni oshirish uchun har bir pedagog turli metodlarni o'ylab topib, har qanday o'quvchini o'ziga jalb eta olishi kerak. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida darslar, asosan, debat ko'rinishida olib boriladi. Bu esa o'z navbatida eng passiv bolani ham e'tiborini o'ziga jalb qiladi. Sinflarda tashkil etiladigan bunday debatlar bola psixologiyasiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazib, ularda o'zlariga bo'lgan ishonchlarini oshirishga yordam beradi, ya'ni jamoat joylarida bemalol fikr bildirish qobiliyatlariga ega bo'ladilar. Raqamli asrda texnologiyadan foydalanish og'zaki nutq qobiliyatini rivojlantirishga sezilarli hissa qo'shishi mumkin. Videokonferentsaloqa, podkasting va onlayn munozaralar kabi platformalar talabalarga muloqot qobiliyatlarini mashq qilish va takomillashtirish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi.² Multimedia taqdimotlari, ovozli yozuvlar va virtual hamkorlikni o'quv dasturiga kiritish o'quvchilarga o'zlarini turli formatlarda samarali ifoda etish uchun turli xil vositalar to'plamini taqdim etadi. Bunday metodlar nafaqat bir fan doirasida, balki chet tili ko'nikmalarini oshirish uchun ham o'zining salmoqli hissasini qo'shadi. Masalan, chet tili fanlarini o'rghanish davomida o'quvchilar uchun zoom ilovasi orqali boshqa davlatlar bilan tashkil etiladigan suhbatlar tilga bo'lgan ko'nikmani oshirishga xizmat qiladi. Shuni ham aytish mumkinki,

¹ Anarbekova G.A. "Og'zaki nutqni rivojlantirish tamoyillari". КиберЛенинка

²G'ofurova Gulhayo Baxtiyorjon qizi "Talabalarni og'zaki nutq kompetentsiyalarini rivojlantirish". 2023-yil 25-oktabr. nauchniyimpuls.ru

maktab o‘quvchilarida kuzatiladigan nutqiy muammolar mavjud bo‘lib, o‘quvchilarning og‘zaki nutqida tez-tez kuzatiladi. Bularga misol tariqasida quyidagilarni olish mumkin: so‘z boyligining yetarli emasligi, fikrni mantiqiy va izchil bayon qila olmaslik, talaffuzdagi kamchiliklar, o‘z fikrini omma oldida erkin ifodalay olmaslik, muloqot madaniyatining sustligi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun tizimli, metodik yondashuv zarur³. Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, og‘zaki nutqni rivojlantirish uchun quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:⁴

a) Interfaol metodlar:

- “Aqliy hujum”, “Bahs-munozara”, “Blits savollar” kabi usullar o‘quvchini fikrlashga undaydi.
- “Rol o‘ynash”, “Dialog yaratish”, “Matnni jonlantirish” kabi mashqlar orqali o‘quvchi faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘ladi.

b) Didaktik o‘yinlar:

Bu usullar bolalarda tasavvur va obrazli fikrlashni rivojlantiradi, ularni har xil rollarda o‘z fikrini ifodalashga o‘rgatadi.

c) Og‘zaki ijod mashqlari:

- Erkin hikoya tuzish;
- Voqeani qayta hikoya qilish;

– Rasm asosida og‘zaki matn tuzish kabi topshiriqlar orqali og‘zaki nutq faoliyati shakllantiriladi. Shuningdek, pedagogning ham roli katta hisoblanib quyidagilarni tashkil etadi: darsda o‘quvchilarni erkin fikr bildirishga undash, har bir o‘quvchining fikrini qadrlash, nutqiy muhitni yaratish (ya’ni har kim o‘z fikrini bildira oladigan ijtimoiy-psixologik sharoitni ta’minlash), teskari aloqa berish — xatolarni ko‘rsatish, rag‘batlantirish va to‘g‘rilash.

Xulosा. Og‘zaki nutqni rivojlantirish – bu tilni o‘rganishdan tashqari, o‘quvchining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi jarayondir. Bu borada o‘qituvchi

³ Ibragimova Latofat “Og‘zaki nutq va uning xususiyatlari”. 2023. “Educational Research in Universal Sciences”

⁴ Djakbarova Mahliyo “O‘quvchilarda og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi”. 2024. “ZiyoNet kutubxonasi”

zamonaviy, interfaol yondashuvlardan foydalanishi, o‘quvchining fikriga hurmat bilan yondashishi va nutqiy muhitni shakllantirishi muhimdir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Anarbekova G.A. “Og‘zaki nutqni rivojlantirish tamoyillari”. КиберЛенинка
2. G‘ofurova Gulhayo Baxtiyorjon qizi “Talabalarni og‘zaki nutq kompetentsiyalarini rivojlantirish”. 2023-yil 25-oktabr. nauchniyimpuls.ru
3. Ibragimova Latofat “Og‘zaki nutq va uning xususiyatlari”. 2023. “Educational Research in Universal Sciences”
4. Djakbarova Mahliyo “O‘quvchilarda og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi”. 2024. “ZiyoNet kutubxonasi”